

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

AVGUST, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-259-6

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari" nomli IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Фозилжонов Хожиақбар

ОБЗОР ТЕСТ ПАТТЕРНОВ ДЛЯ ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАМЕТРОВ ПЭМИ ВИДЕОТРАКТОВ
CBT.....7-11

Mamadaliyeva Gulhayo

QANOT UYUMLARI TENG BO'LMAGAN EGAT OCHGICHINI QANOTINING BALANDLIGINI
UNING ISH KO'RSATGICHLARIGA TA'SIRI 12-16

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLAR SIFATI: ILMIY-TAHLILY YONDASHUV..... 17-19

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

NIZOMIDDIN SHOMIY VA SHARAFIDDIN ALI YAZDIYLARNING ZAFARNOMA ASARLARIDAGI
QIYOSIY FARQLAR..... 20-23

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI 24-25

Xasanova Nargiza

AYOL-QIZLARNING ILMIY IZLANISHLARI VA TADQIQOTLARI HAQIDA 26-29

Rustamova Nigora

MUSTAQILLIK YILLARIDA SAMARQAND VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH
ISTIQBOLLARI 30-32

Xalilov Baxodir

YOSHLAR BILAN ISHLASHDA MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMNING ROLI: "KAMOLOT"
TASHKILOTI FAOLİYATI TAHLILI (Navoiy viloyati misolida) 33-37

Норов Шухрат

УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ В ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (на примере Самарканда, Бухары и Навои) 38-41

Sattarova Marhabo

O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOLERANTLIK VA UNING MADANIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA'SIRI (Surxondaryo viloyati 1991-2022 yillarda) 42-43

IQTISODIYOT FANLARI

Qo'chqarov Baxtiyor

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA AYLANMA MABLAG'LAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH
METODIKASI 44-47

Abduraimova Nigora

TABAQALASHTIRILGAN SOLIQ STAVKALARINI QO'LLASH
BO'YICHA JAHON TAJRIBASI 48-51

Sidiqov Jasurbek

IJTIMOY INNOVATSIYALARNI TATBIQ ETISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR..... 52-56

Nematova Dilnoza

ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH 57-63

Axmedova O'g'ilshod

O'ZBEKISTONDA MIKROMOLIYA TASHKILOTLARIDA ISLOM MOLIYASI
INSTRUMENTLARINING JORIY ETILISHI VA UNING ISTIQBOLLARI 64-66

<i>Abduraimova Nigora</i> TABAQALASHTIRILGAN STAVKALARNI QO'LLASHDAGI MUAMMOLAR VA QARAMA-QARSHILIKLAR	67-70
<i>Tuychiyev Anvarjon</i> MAMLAKAT XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	71-75
<i>Asqarov Abrorjon</i> TALABALARDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI	76-85
<i>Yusufjonov Ravshanbek</i> INVESTMENTS IN THE AGRICULTURAL SECTOR.....	86-88
FALSAFA FANLARI	
<i>Gafurova Munajat</i> O'ZBEKISTON SHAROITIDA GENDER TENGsizLIGINING IJTIMOiy TABIYATI VA UNING BARTARAF ETILISH YO'LLARI.....	89-92
<i>Abdullayev Sodiqjon</i> ZAMONAVIY GLOBAL MUHITDA SALOMATLIK MADANIYATINING SHAKLLANISH OMILLARI	93-98
FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Yusufova Farangiz</i> HALIMA XUDOYBERDIYEVA SHERIYATIDA BADIiy-ESTETIK TALQIN.....	99-102
<i>Xoliyorova To'lg'anoy</i> O'ZBEK TILI O'QITISH JARAYONIDA KORPUS LINGVISTIKASI VOSITALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	103-104
<i>Ro'ziyev Temur</i> IJODDAGI SHAXS VA ESTETIK POZITSIYA MUTANOSIBLIGI	105-112
<i>Eshchanova Mavjuda</i> CLASSICAL CLASSIFICATIONS OF EUPHEMISMS: SEMANTIC, PRAGMATIC AND FUNCTIONAL APPROACHES.....	113-115
<i>Sobirova Shahzoda, Jumayeva Dilfuza</i> ALISHER NAVOIY ASARLARINING STILISTIK XUSUSIYATLARI ("Hayrat ul-abror" dostoni misolida).....	116-119
<i>Bahromjonova Shahnoza</i> "MOMOTARO" YAPON XALQ ERTAGI VA UNING FILM VA ANIMEDAGI TALQINI	120-122
<i>Maxmudova Marjona</i> "DOLZARB 90 KUN" TASHABBUSI DOIRASIDA YOSHLAR BILAN ISHLASHNING YANGI BOSQICHI.....	123-124
<i>Gulmuradova Sobira</i> TURKIYSHUNOSLIKDA ETNOGRAFIZMLARNING O'RGANILISHIGA DOIR.....	125-127
<i>Qurbonova Aziza</i> O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA SOMATIK IBORALARNING AHAMIYATI	128-129
<i>Pulatjonova Muxtasar</i> ENGLISH LEARNING DIFFICULTIES OF UZBEK LEARNERS: A QUESTIONNAIRE-BASED STUDY.....	130-136

<i>Qosimova Malika</i> LAKUNALARNING TARJIMASHUNOSLIKDA O'RGANILISHI VA ULARNI BARTARAF ETISH METODLARI	137-140
<i>Ayimbetova Damekhan</i> ADABIYOTSHUNOSLIKDA TED XYUZ IJODINING O'RGANILISHI: ANIMALISTIK SHE'RIYATI VA OBRAZLAR TIZIMI	141-145
<i>Yo'ldasheva Mahliyo</i> "MARTIN IDEN" VA "OQ SO'YLOQ" ASARLARI TARJIMALARINING LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI	146-149
YURIDIK FANLARI	
<i>G'ofurov Ramzbek</i> DASTLABKI TERGOVDA JAMOATCHILIKNING ISHTIROKI	150-154
<i>Turdibaeva Mukhaddas</i> JUDICIAL REFORMS OF UZBEKISTAN-A NEW ERA, NEW APPROACHES	155-160
<i>Gafurova Shoir</i> ELEKTRON DALILLARNI TO'PLASH VA TAQDIM ETISHNING AMALIY MUAMMOLARI	161-165
<i>Komilov Avazbek</i> PROKURORNING MA'MURIY JAVOBGARLIK TO'G'RSIDA ISH QO'ZG'ATISH HAQIDAGI QARORI VA UNING SHAKLI HAMDA MAZMUNIGA QO'YILGAN TALABLAR	166-169
<i>Babajanov Farrux</i> IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI PRINSIPLARINI SUD XARAJATLARI INSTITUTIDA AKS ETTIRISH	170-175
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Нуриллаева Угулхон</i> ПРОЦЕССЫ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (feedback) И МОНИТОРИНГА: ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ДАННЫХ ВО ВЗАИМОДЕЙСТВИИ МЕЖДУ СТУДЕНТОМ И ПРЕПОДАВАТЕЛЕМ	176-181
<i>Tursinova Zoxida</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEXANIZMLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING O'ZIGA XOS HUSUSIYATLARI	182-191
<i>Babayeva Shahnoza</i> BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK MUAMMOLARI VA DOLZARBLIGI	192-194
<i>Rasulova Barnoxon</i> KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVGA ASOSLANGAN TA'LIMDA FORMATIV VA SUMMATIV INNOVATSION BAHOLASH USULLARI	195-199
<i>Zokirjonov Akramjon</i> O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI	200-202
<i>Baratova Yulduz</i> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI	203-206

Sattoriy Shohruh

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI 207-210

TIBBIYOT FANLARI

Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza

AUTOIMMUN TIREOIDIT VA SELEN..... 211-213

Мамадалиев Хасанхон

ПАТОМОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОЯВЛЕНИЯ АНТИФОСФОЛИПИДНОГО СИНДРОМА (АФС)

И УРОВЕНЬ АНТИФОСФОЛИПИДНЫХ АНТИТЕЛ У ЖЕНЩИН-РОДИЛЬНИЦ: КЛИНИКО-

МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ..... 214-218

Maxmudbekov Boburmirzo

BOLALARDA PASTKI JAG' O'TKIR ODONTOGEN OSTEOMIELITINI KOMPLEKS DAVOLASHDA

OPERATSIYADAN KEYINGI YARALARNI MAXALLIY DAVOLASH..... 219-221

PSIXOLOGIYA FANLARI

Усманова Лилия

ЭТАПЫ ЖИЗНЕННОГО ЦИКЛА СЕМЬИ: ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В НАУЧНОЙ

ТРАДИЦИИ 222-225

SIYOSIY FANLAR

Sa'diyev Bahodir

ENERGETIKANING RIVOJLANISH OMILLARI VA ASOSIY GLOBAL AKTYORLARI..... 226-231

TALABALARDA MOLIVAVIY SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH DARAJALARI VA UNI PEDAGOGIK TASHXISLASH XUSUSIYATLARI

Asqarov Abrorjon Xayitmirzayevich

Namangan davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: Abrorjonasqarov86@gmail.com

Anotatsiya. Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish muammosi nafaqat boshlang'ich, asosiy va o'rta ta'lim dasturlarini amalga oshirish talablaridan biri sifatida uni shakllantirish uchun shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga olgan yangi Davlat ta'lim standartlarini joriy etish tufayli, balki ta'lim sifatini oshirish zarurati tufayli ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada aynan manashu dolzarb masalalarni bartaraf etish masalalari atroflicha ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: moliyaviy instrumentlar, Moliyaviy institutlar, Pareto qoidasi.

LEVELS OF DEVELOPMENT OF FINANCIAL LITERACY IN STUDENTS AND FEATURES OF ITS PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS

Asqarov Abrorjon Khayitmirzayevich

Namangan State University, independent researcher

E-mail: Abrorjonasqarov86@gmail.com

Annotation. The problem of developing financial literacy remains relevant not only due to the introduction of new state educational standards, which include the creation of conditions for its formation as one of the requirements for the implementation of primary, basic and secondary educational programs, but also due to the need to improve the quality of Education. In this article, it is manashu who will consider the issues of elimination of current issues in detail.

Key words: financial instruments, Financial institutions, Pareto rule.

DOI: <https://doi.org/10.47390/259-6/uzb-IV/No-18>

Kirish. Hozirgi zamonaviy jamiyatda shaxsning moliyaviy savodxonligi — uning iqtisodiy mustahkamligi, shaxsiy budjetni to'g'ri boshqarishi, oqilona sarmoya kiritish va moliyaviy xavf-xatarlarni baholash qobiliyatini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, yosh avlod — talabalarning moliyaviy savodxonligini shakllantirish ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotida barqaror qarorlar qabul qilishini ta'minlaydi.

Talabalarning moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash va rivojlantirish, bu boradagi bilim, ko'nikma va munosabatlarni shakllantirish mukammal pedagogik yondashuvlarni talab etadi. Bu jarayonda pedagogik tashxislash usullaridan samarali foydalanish talabalarning mavjud holatini baholash, bilimlardagi bo'shliqlarni aniqlash va individual rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Ushbu maqolada talabalarda moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish darajalari tahlil qilinadi hamda uni aniqlash va baholashdagi pedagogik tashxislash xususiyatlari yoritib beriladi. Maqolaning asosiy maqsadi — ta'lim jarayonida moliyaviy bilimlarni samarali shakllantirish va ularni to'g'ri baholashga qaratilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy asoslarni ko'rsatishdir.

Metodlar bo'limi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6207-sonli Farmoniga asosan, umumta'lim maktablari o'quvchilari hamda noiqtidosiy yo'nalishdagi oliy ta'lim tashkilotlari talabalari uchun «Moliyaviy savodxonlik» o'quv kursini fan sifatida joriy etish belgilandi. Ushbu fan doirasida talabalarga mablag'larni to'g'ri boshqarish, oqilona moliyaviy qarorlar qabul qilish, jumladan moliyaviy instrumentlar bo'yicha o'qitish metodologiyasini ishlab chiqish hamda «Moliyaviy savodxonlik olimpiadalari»ni tashkil etish orqali o'quv kursining samaradorligini baholash asosiy vazifa etib belgilandi.¹

Bizningcha, ta'lim sifatini oshirish vazifasi murakkab va o'quv natijalarini baholashning mavjud tizimini tahlil qilish, standart talablariga muvofiqlik darajasini aniqlashning samarali shakllari va usullarini va uni baholash vositalarini tanlash nuqtai nazaridan nazariy tushunishni talab qiladi.

Aynan ilmiy pedagog tadqiqotchilardan A.F.Skiteva, L.G.Gorskayalarni fikricha, oliy o'quv yurtlarida qo'llaniladigan ta'lim (meta-mavzu, mavzu va shaxsiy) natijalarini baholashda tizimli faoliyat va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlar asosan moliyaviy savodxonlikni baholash uchun ishlatiladigan diagnostika va o'lchash vositalaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, moliyaviy savodxonlikni baholash metodologiyasini muvaffaqiyatli o'zlashtirgan o'qituvchi keyinchalik boshqa fan sohalarida samarali qo'llanilishi mumkin bo'lgan kasbiy ko'nikmalarga ega bo'lishini ta'kidlaydi.²

Biroq, ilmiy adabiyotlarda turli toifadagi talabalarining moliyaviy savodxonligi darajasini baholashga turli xil yondashuvlar, shu jumladan o'lchov materiallari tarkibi, turli xil baholash texnologiyalari va boshqalar keltirilgan.

Bizning fikrimizcha, eng keng tarqalganlaridan biri bu PISA tipidagi baholash vazifalaridan foydalanish bo'lib, unda moliyaviy savodxonlik "insonning o'z hayotining turli vaziyatlarida oqilona, maqsadga muvofiq moliyaviy qarorlar qabul qilish qobiliyati"deb tushuniladi.

Aslida, moliyaviy savodxonlik darajasini aniqlash bo'yicha vazifalar uchta blokdan iborat: tarkib, kognitiv jarayonlar, kontekstlar (hayotiy vaziyatlar). Kontekstlar-bu turli xil bloklarga birlashtirilgan vaziyatlar guruhlar: ta'lim va ish, uy va oila, shaxsiy va ijtimoiy vaziyatlar hisoblanadi.

Shuningdek, PISA tadqiqotlarida qo'llaniladigan moliyaviy savodxonlikni baholash bo'yicha vazifalar banki ochiq, ammo ularning formati va o'quv jarayoniga kiritish metodikasi ko'pchilik o'qituvchilar uchun loyihalash va foydalanishda qiyinchilik tug'diradi, chunki u o'zgaruvchan semantik kontekstlarga yo'nalishni talab qiladi.

Natijalar bo'limi. Hozirda xalqaro tajribani tahlil qilish asosida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2020 yil 8-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi VM-365-sonli qaroriga asosan, umumta'lim maktablarining yuqori sinflari (9-11 sinflar), litsey o'quvchilari va kollej talablari, oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat talabalari orasida moliyaviy savodxonlik bo'yicha har yili respublika olimpiadalarini o'tkazish belgilandi. Bunda,

¹ <https://www.lex.uz/uz/docs/5371091?ONDATE=28.11.2024%2000>

² Скитева А.Ф., Горская Л.Г. Оценка уровня финансовой грамотности обучающихся в современной школе Педагогическая перспектива. 2023. № 4(12).

olimpiadaning me'yoriy va uslubiy bazasini tayyorlash, o'qituvchilarni tayyorlash, olimpiada chora-tadbirlari va nizomlarini tayyorlab har-bir bandini amalga oshirish vazifalari belgilandi.¹

Bizningcha, moliyaviy savodxonlik bo'yicha o'quv-uslubiy majmualar alohida tematik bloklar va bo'limlarda ishlab chiqilgan mualliflik nazorat va o'lchash materiallarini o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Chunki, talabalarga taqdim etiladigan topshiriqlar amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, ularga muayyan hayotiy vaziyatga sho'ng'ish imkoniyatini beradi. Baholash materiallarining formati xilma-xil bo'lib, ya'ni bunda test topshiriqlaridan to'g'ri javobni tanlashdan tortib, batafsil javob bilan amaliyotga yo'naltirilgan topshiriqlar va vazifalarni tashkil qiladi.


Xususan, moliyaviy savodxonlikning mavzu yo'nalishlari aniqlandi, uning asosiy tarkibiy qismlari ta'kidlandi jumladan, bilim va tushunish, ko'nikma va xulq-atvor, shaxsiy xususiyatlar va munosabatlar shular sirasiga kirai. Ushbu ishlanmalar turli yoshdagi talabalar uchun o'lchov materiallarining asosini tashkil etadi. Turli darajadagi musobaqalar doirasida talabalarning moliyaviy savodxonligi darajasini baholash vazifalari alohida qiziqish uyg'otadi.

2025 yil 27-may kuni Namangan viloyatidagi 6 ta oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiy va noiqtisodiy yo'nalishi talabalari o'rtasida Namangan davlat universiteti va O'zbekiston Respublikas Markaziy banki Namangan viloyat bosh boshqarmasi hamkorligi "Moliyaviy savodxonlik" olimpiadasi o'tkazildi.

Jumladan, o'tkazilgan olimpiada natijalariga ko'ra, 1-shart bo'yicha ijobiy natija ko'rsatgan "Savodli sarmoyadorlar" jamoasi eng yuqori ball (18,5 ball / 92,5%) jamg'arib, jamoa o'zini nazariy va amaliy bilimlarga ega ekanligi, barcha yo'nalishlarda muvozanatli bilimi borligini olimpiadada namoyon etdi.

Olimpiadada 1-shart bo'yicha yuqori va o'rta natija ko'rsatgan jamoalar, "Futures" (77,5%) va "Amir Temur vorislari" (75%) jamoalari yaxshi bilimga ega, lekin ma'lum sohalarda rivojlanish uchun imkoniyatlarini ishga solish kerakligi, bu jamoalar, ayniqsa, moliyaviy institutlar yoki moliyaviy tushunchalar bo'yicha ko'proq amaliy mashg'ulotlarga muhtoj ekanliklari olimpiada o'z ifodasini topdi.

¹ <https://lex.uz/docs/-4850492?ONDATE2=09.06.2020&action=compare>



3.1.1-pacm “Moliyaviy savodxonlik” olimpiadasi natijalari dinamikasi

Olimpiadada 1-shart bo'yicha o'rtacha natija ko'rsatgan jamoalar “UBS Burgutlari” (70%) va “Sarmoya yo'l boshchilari” (67,5%) asosiy tushunchalarni o'zlashtirgan, lekin qonunchilik yoki institutsional bilimlarda ayrim kamchiliklar borligi aniqlandi. Bu jamoalarning natijalari ustidan maqsadli ish olib borish orqali 80%+ darajaga chiqish mumkin degan hulosalarga kelindi.

Olimpiadada 1-shart bo'yicha natijalarini qoniqarli ko'rsatgan jamoa “Uz Financiers” (65%) natijasi past emas, lekin boshqa jamoalarga nisbatan kamroq test savollariga javob berganliklari aniqlandi. Bundan hulosa qilamizki, jamoadagi umumiy bilimning yetarli darajada shakllanmaganligini, bilimlarni tizimlashtirishga ehtiyoj borligi aniqlandi.

Olimpiada ishtirokchilariga quyidagi pedagogik xulosalar va tavsiyalar berildi. Barcha jamoalar kamida 65% va undan yuqori natija ko'rsatgan bu talabalarda moliyaviy savodxonlik shakllanganligini ko'rsatadi. Jamoalar orasidagi farq 5,5 ball (27,5%) atrofida bo'lib, bu jamoalar orasida raqobat muhiti shakllanganligini, lekin ayrimlar orasida bilim tarkibiyligi va chuqurligida farq borligini anglatdi.


Bundan kelib chiqadiki 1-shart bo'yicha quyidagi pedagogik tavsiyalarni berish lozim bo'ladi. Jumladan,

1. Talabalarni bilimlaridagi zaif nuqtalarini aniqlab, yo'naltirilgan mashg'ulotlar o'tkazish uchun ularni differensial o'qitish maqsadga muvofiq hisoblanadi.
2. Yuqori natijali jamoalarning tajribalarini boshqalar bilan o'rtoqlashish uchun muloqot va tajriba almashish ijobiy natijalar beradi.
3. Amaliyotga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari orqali talabalarni moliyaviy institutlar, instrumentlar va qonunchilikni keys-metod, debat va simulyatsiya orqali o'rgatish tavsiya etiladi.

4. Talabalarni mashq va testlarni takrorlashlari orqali test savollari tuzilishi, tahlil qilish usullari va logik fikrlashni rivojlantirish kerak bo'ladi.

2-shart bo'yicha olimpiadada ijobiy natija ko'rsatgan "Futures" jamoasi (90%) jamg'arib, moliyaviy ko'nikmalar bo'yicha eng yuqori natijani qayd etgan. Bu jamoa a'zolarida moliyaviy jarayonlarni tushunish, rejalashtirish, tahlil qilish ko'nikmalari yaxshi shakllanganligini ko'rsataib, jamoa o'zini nazariy va amaliy bilimlarga ega ekanligi, barcha йўналишларда мувозанатли билими борлигини олимпиадада намоён этди. Натижалар (2.1.2-жадвал) қуйидагиларни ташкил қилди.

3.1.2-rasm. Moliyaviy ko'nikmalarni baholash natijalari diagrammasi



Shunindek, "Savodli sarmoyadorlar" (78.8%) va "UBS Burgutlari" (77.5%) ham yuqori o'rtacha ko'rsatkichlar bilan yaxshi darajada baholangan. Bu jamoalar moliyaviy savodxonlik bo'yicha ishonchli darajaga ega ekanligi natijalaridan ko'rishimiz mumkin.

Olimpiadada o'rtacha natijalar ko'rsatgan, "Sarmoya yo'l boshchilari" (70%) va "UZ Financiers" (67.5%) natijalarga erishdi lekin bu yetarlicha qoniqarli ko'rsatkich, ammo ba'zi tushunchalar yoki amaliyotdagi noaniqliklar mavjudligi ham aniqlandi.

Qolaversa, past ko'rsatkichga ega bo'lgan "Amir Temur vorislari" jamoasida moliyaviy ko'nikmalar (47.5%) past darajada ekanligini ko'rsatdi. Bu natija ularda kelgusida moliyaviy tushunchalarni chuqur o'zlashtirish zarurligini ko'rsatdi.

Olimpiadada barcha jamoalarni 2-shart bo'yicha pedagogik taxlili orqali quyidagi ma'lumotlarni kashf etildi.

Жумладан, барча жамоаларнинг о'қув жараёни самарадорлиги батафсил о'рганилди. Натижада, "Futures" жамоасининг (90%) натижаси уларга молиявий ко'никмаларни о'ргатиш жараёни самарали бо'лганлигини ко'рсатади.

Bu o'qitish usuli va murabbiy mehnatining samaradorligidan dalolat beradi. O'rta, yuqori va o'rtacha ko'rsatkichga ega jamoalar "Savodli sarmoyadorlar", "UBS Burgutlari", "Sarmoya yo'l boshchilari" uchun moliyaviy o'quv jarayoni yaxshi yo'lga qo'yilgan, biroq

amaliyotga oid mashg'ulotlar soni yetarli darajada tashkil etilmaganligi uchun jamoalarni 2-shart bo'yicha topshiriqlarni bajarish yetarli darajada muammolarni paydo bo'lishiga sabab bo'ldi, buning uchun talabalarga amaliy moliyaviy mashg'ulotlarni ko'paytirilishi lozim bo'ladi.

Jamoalarda metodik yetishmovchiliklar ham mavjudligi aniqlandi. Ya'ni "Amir Temur vorislari" jamoasining natijasi pedagogik nuqtai nazardan o'qitish jarayonida metodik kamchiliklar yoki talabalarning faolligi pastligini ko'rsatdi. Kelgusida ushbu jamoaga keyslar, treninglar, simulyatsiyalardan ko'proq foydalanish tavsiya etiladi.

Lekin jamoalarda vaziyatni chuqur tahlil qilishda qiyinchilik kuzatildi. Shunisi e'tiborliki, iqtisodiy yo'nalishdagi jamoalarda ham hisoblash va tahlil chuqurligida kamchiliklar (asosiy bilimlarni avtomatizm darajasida o'zlashtirmagan) mavjudligi aniqlandi.

Yuqoridagi talabalarni moliyaviy savodxonligini darajasini aniqlash maqsadida o'tkazilgan olimpiada orqali pedagogik taxlillaridan shuni ham ko'rishimiz mumkinki, talabalarni moliyaviy savodxonligini oshirishda pedagogik texnologiyalarni "Paretto qoidasi"ga bog'lash-bu ta'limda fokuslashtirish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan konsepsiya hisoblanadi. Chunki, Paretto qoidasi (80/20 qoidasi) shunday ta'kidlaydiki, natijalarning (80%) foizi faoliyatning (20%) foizidan kelib chiqadi.

Bizningcha, agar pedagogik texnologiyalar va strategiyalar muayyan sohada natija bersa, ushbu sohaning faoliyatlariga e'tiborni jamlash va fokuslash talabalarga moliyaviy savodxonlikni oshirishda samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Chunki, moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun pedagogik texnologiyalar va Paretto qoidasini quyidagi usullar orqali bog'lashni tavsiya etiladi: Ushbu usullar moliyaviy savodxonlikni oshirishda samaradorlikni ko'tarishga yordam beradi, chunki har bir ma'lumot yoki faoliyat haqiqatan ham talabalarga katta ta'sir ko'rsatishga mo'ljallangan bo'ladi.

Ilmiy pedagog tadqiqotchilardan A.F.Skiteva, L.G.Gorskayalarni fikricha, o'qituvchi diagnostika ishlarini tashkil qilish modellaridan birini belgilaydi: shuningdek u ishning alohida qismlarini rejalashtirilgan jadval bo'yicha avtonom ketma-ket bajarish yoki murakkab ish masalan, kurs oxirida topshiriqlarni yakuniy baholash uchun o'quv jarayoniga kerakli materialni o'z ichiga oladi va tegishli metodologiyani qo'llaydi.

Moliyaviy savodxonlik bo'yicha murakkab vazifalar talabalar tomonidan turli xil aqliy operatsiyalarni amalga oshirishni o'z ichiga oladi, chunki har bir taklif qilingan vazifa moliyaviy muammolarni baholash, moliyaviy bilim va ko'nikmalarni qo'llash bilan moliyaviy kontekstda moliyaviy ma'lumotlarni aniqlashni talab qiladi. Shu maqsadda qo'llanilgan turli texnologiyalarni tahlil qilib, case texnologiyasi eng katta samaradorlikka ega degan xulosaga kelishimiz mumkin bo'ladi.

Ilmiy tadqiqotchilardan Ye.S.Polat, M.Yu.Buxarkina fikrlariga ko'ra ta'limda case texnologiyasi an'anaviy ravishda "kasbiy faoliyatida real yoki simulyatsiya qilingan muammoli vaziyatni tahlil qilish va hal qilish asosida talabalarning bilimlari va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga qaratilgan interaktiv texnologiya"deb tushuniladi.¹

Bir tomondan, amaliy tadqiqotlar o'quv jarayonini tashkil yetishga imkon beradi, talabalarning yangi fazilatlar va ko'nikmalarni shakllantirish faoliyatini faollashtiradi, boshqa


¹ Полат Е.С., Бухаркина М.Ю. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. М.: Академия, 2010. 364 с.

tomondan, ular moliyaviy savodxonlik darajasini tashxislash vositasi sifatida ishlatilishi mumkin. O'qituvchi nafaqat yakuniy javobni "to'g'ri-noto'g'ri" pozitsiyasidan, balki fikrlash mantig'ini, nostandart yechimlarni va turli xil axborot manbalari bilan ishlash qobiliyatini baholash imkoniyatiga yega bo'ladi. Keys tadqiqotlari fanlararo xarakterga yega, shuning uchun ular talabalarining kompetensiyalarini shakllantirish darajasini samarali ochib beradi. Buni yaqqol namunasi sifatida quyidagi aniq ma'lumotlar asosida taxlil o'tkazamiz.

Masalan, Moliyaviy savodxonlik olimpiadasida 3-shart Keys-stadini baholash sharti bo'yicha natijalari taxlili shuni ko'rsatmoqdaki, UZ Financiers, Savodli sarmoyadorlar va Sarmoya yo'l boshchilari jamoalari olimpiada shartlarini yaxshi o'zlashtirganini sababli (57,5%) natijaga erishganligini ko'rsatadi. Jamoalarni har-birini taxlili ko'rsatib o'tilgan.

Masalan, noiqtisodiy yo'nalishdagi jamoalar (Amir Temur vorislari va Sarmoya yo'l boshchilari) moliyaviy tahlil va qaror qabul qilishda yetarlicha ijodiy fikr yuritgan. Yechim taklif qilish va uni asoslash ko'nikmalari deyarli barcha jamoalarda shakllangan. Biroq, jamoalarni rivojlantirish mumkin bo'lgan jixatlari quyidagilardan kelib chiqib, taqdimot ko'nikmalari (qarorni bayon qilish, muloqot) ayrim jamoalarda past darajada ekanligi ma'lum bo'ldi.

2.1.1-рasm Жамоаларни молиявий саводхонлик барометри диаграммаси



Muhokama bo'limi. Lekin jamoalarda vaziyatni chuqur tahlil qilishda qiyinchilik kuzatildi. Shunisi e'tiborliki, iqtisodiy yo'nalishdagi jamoalarda ham hisoblash va tahlil chuqurligida kamchiliklar (asosiy bilimlarni avtomatizm darajasida o'zlashtirmagan) mavjudligi aniqlandi.

Yakuniy natijalar turli jihatlardan iborat bo'ladiki, talabalar nazariy atamalarini bilish, xarajatlarni hisoblash uchun kredit kalkulatoridan foydalanish qobiliyati, ma'lumot bilan ishlash qobiliyati (kredit shartnomasini o'qing), guruhda ishlashi, muloqot qobiliyatlari shakllanadi. Vazifa shaxsiy xususiyatlar va munosabatlarni aniqlashga imkon beradi. Bu orqali moliyaviy javobgarlikni tushunish, kredit imkoniyatlari va ehtiyojlarini o'zaro bog'lash tavsiya

etiladi. Shunday qilib, case texnologiyasi "o'quv maydonidan tashqariga chiqadigan kompetensiyalarni shakllantirish vositasi"ga aylanadi.

Moliyaviy savodxonlik darajasini baholashning mavjud yondashuvlari tahlili shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda nafaqat moddiy bilim darajasini aniqlashga, balki talabalar vakolatlaridagi kamchiliklarni aniqlashga imkon beradigan murakkab vazifalarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan baholash tizimi ob'ektiv nazoratga intiladi, talabanini rag'batlantirishga, kelajakda muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Bunda shakllanish darajasi zamonaviy ta'lim sifatini belgilaydigan moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish alohida rol o'ynaydi. Ta'lim tashkilotining uslubiy vazifasi o'qituvchilarga o'quv dasturlarini o'zlashtirish natijalarini baholash vositalarini, talabalarining bilim faoliyatini faollashtirishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish uchun sharoit yaratish va o'qituvchilarga ushbu sohadagi o'zlarining o'quv faoliyati muvaffaqiyatlarini tahlil qilish va baholashga o'rgatish hisoblanadi.

P.I.Tretyakovning fikricha, «Ta'lim olganlik darajasining tashxisi» nomli metodikasida talabalar uchun turli murakkablik darajasidagi mustaqil ishlarni bajarish ko'nikmasini egallaganlikni namoyish qilish, bilish faoliyatidagi kamchiliklarni tuzatishga doir dasturlarni loyihalash imkoniyatini yaratish maqsadini nazarda tutadi.¹

Hulosa. Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda, bizning fikrimizcha, ta'lim jarayonida har bir talabaning o'zi o'zlashtirgan ilmiy bilimlar tizimida moliyaviy savodxonlikka ijodiy yondashuvning mohiyati va turli ko'rinishlari, loyihalash madaniyati negizida aks etuvchi qobiliyatlar to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor bo'lishi, yanada aniqrog'i farqlashi shaxsiy hayotida muayyan moliyaviy operatsiyalar, shartli belgilarni bir-biridan farqlay olishi lozim bo'ladi.

Talaba o'qituvchi yordamida moliyaviy terminlarni yodda saqlashi, bajarilgan topshiriq, mashq, tayyorlangan loyiha taqdimoti mohiyati, ularni tayyorlash qoidalari, tartibi, nazariy tasdig'ini ochib berishi izohlashi kerak bo'ladi. Bundan tashqari talabalar moliyaviy ijodiy ishlarni tayyorlashda har bir harakat, hodisa o'rtasidagi aloqa, o'zaro bog'liqlikni topa bilishi sabab va oqibatni ko'rsata olishi zarur. Chunki, talaba o'rgangan moliyaviy nazariy bilimlarini masalan, rasm, sxema chizish, jadval, krossvord, skanvord, rebus, diagrammalar va anagrammalar yaratish va o'qituvchi tomonidan taklif etilgan topshiriqlarni yechimi borasidagi ko'nikma, malakalarga egalikni imkon qadar to'la amaliy xarakatlari orqali yoritish lozim.

O'qituvchi talabalarining faoliyati, ijodiy ishlarini baholash uchun metodikani qo'llash avvalida ularning e'tiborlariga o'zlashtirganlik darajasi va ularga qo'yiladigan baho ko'rsatkichlarini ifodalovchi quyidagi mezonlarni havola etishi lozim.

№	O'zlashtirganlik darajasi	Baho
1.	Variant I: 1,2	"3"
2.	Variant II: 2,3,4	"4"
3.	Variant III: 4,5	"5"

¹ Пудочкина Т.С. Педагогическая диагностика: инструментарий, организация, проведение, обработка и использование результатов. // www.openclass.ru/node/249066.

Metodikaning afzalligi shundaki, unga ko'ra talabalar bilim, ko'nikma, malakalar (BKM)ning o'zlashtirganlik darajasini ifodalovchi variantlar va baholar ko'rsatkichlarini o'zlari tanlashi mumkin. Bu degani, ularning o'zlari o'qituvchi tomonidan taklif etilayotgan topshiriqlarni ham mustaqil tanlaydi. O'qituvchi talabalarning mustaqil tanloviga ko'ra bajargan ishlarini baholab boradi. Uning bu boradagi harakati natijasi 3.1.5-jadvalda o'z aksini topadi. Shunday qilib, zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostika g'oyalarini amaliyotda qo'llash interaktiv va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy, metodik, tashkiliy, amaliy jihatdan to'g'ri tashkillashtirilishini ta'minlaydi.

Talabalar tomonidan bilim, ko'nikma, malakalarning samarali o'zlashtirilishi uchun sharoit yaratadi. Qolaversa, pedagogik jarayonda muayyan kamchiliklar ko'zga tashlansa, ularni tezkor bartaraf etish, istiqbol vazifalarni oqilona belgilashga yordam beradi. Shu bilan birga, talabalarda moliyaviy savodxonlik rivojlantirishda quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Talabaning ismi va familiyasi	Topshiriqlarning toʻliq va toʻgʻri bajarilganligi					Hulos a
	Oʻzlashtirganlik darajasi					
	Asosiy bilimlar (0-20 ball)	Asosiy koʻnikmalar (0-20 ball)	Oʻrta daraja (0-20 ball)	Ilgʻor koʻnikmalar (0-20 ball)	Mutaxassis darajasi (0-20 ball)	

3.1.5-jadval. Talabalarni bajargan ishlarini baholash mexanizmi

1. Ta'lim muassasalarida o'qitiladigan fanlar bo'yicha ijodiy topshiriqlarni shakllantirish mumkin bo'lgan mavzularni aniqlash, aniqlangan mavzular bo'yicha topshiriqlar tizimini ishlab chiqish;

2. Ishlab chiqilgan ijodiy topshiriqlar tizimi bo'yicha talabalarning faoliyatlarini tashkil etish uchun zarur pedagogik shart-sharoitni yaratish;

3. talabalar tomonidan tayyorlangan ijodiy mahsulotlarning didaktik va amaliy qiymatini xolis baholash;

4. original ishlanmalar, ijodiy mahsulotlarning metodik kengash va birlashmalar tomonidan munosib baholanishiga erishish orqali ularning ommalashtirilishini ta'minlash va buning natijasida moliyaviy savodxonlik fanining didaktik ta'minotini boyitishga muvaffaq bo'linadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Полат Ye.C., Бухаркина М.Ю. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования: учебное пособие для студентов высших учебных заведений. М.: Академия, 2010. 364 с.
2. G.Isomidinova, J.Singh, Determinants of financial literacy: a quantitative study among young students in Tashkent, Uzbekistan, Electronic Journal of Business & Management, 2:1, (2017) 61 – 7
3. Ван Хорн Дж. К., Вахович Д. М. Основы финансового менеджмента. М.: ИД «Вильямс», 2011. 992 с.

4. Т.В.Файберг Повышение финансовой грамотности населения: российский опыт и возможности сотрудничества с Китаем // Развитие российско-китайских отношений: новая международная реальность. Материалы второй международной научно-практической конференции, посвященной 70-летию Победы во Второй мировой войне: в 2 частях. 2016. 174-181. <https://docplayer.ru/46833264-Razvitie-rossiysko-kitayskih-otnosheniy-novaya-mezhdunarodnaya-realnost.html>
5. С.Д.Резник, О.А.Сазыкина, М.В.Черниковская “Повышение финансовой грамотности студентов: особенности и возможности региональных вузов”, Интеграция образования. Т. 27, № 3. 2023, <http://edumag.mrsu.ru>
6. A.X.Asqarov, G.Mirhamidova “Iqtisodiy yo‘nalishdagi talabalar o‘rtasida moliyaviy savodxonlikni baholashni pedagogik me‘zonlari” Journal of New Century Innovations . - 16, 2024-yil. <https://www.newjournal.org/index.php/new/article/view/15796>
7. A.X.Asqarov, “The need for innovative pedagogical technologies to improve the financial literacy of student youth”, NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI. -6, 2024-yil. e-mail: science@namdu.uz
8. A.X.Asqarov, “Олий та’лим муассасаларида молиявий саводхонликни оширишни педагогик технологиялари”, International Journal of Science and Technology. -10, 2024-yil. muymidinovmuhammadzair@gmail.com
9. A.X.Asqarov, “The Process of Organizing the Increase in Financial Literacy in Higher Educational Institutions”, European Journal of Economics, Finance and Business Development . -10, 2024-yil. 11
10. S. V. Brovchak, M. A. Selivanova, E. N. Sochneva, O. V. Firsanova, A. A. Tsyganov, V. G. Shubayeva, “Issues of increase in financial literacy of students of higher educational institutions of financial and economic orientation” Перспективы Науки и Образования. 2019. 5 (41)
11. Скитева А.Ф., Горская Л.Г. Оценка уровня финансовой грамотности обучающихся в современной школе Педагогическая перспектива. 2023. № 4(12).
12. <https://kun.uz/news/2018/11/26/muvaffakiyatga-erisgan-sahslarning-6-siri>
13. <https://www.lex.uz/uz/docs/5371091?ONDATE=28.11.2024%2000>
14. <https://lex.uz/docs/-4850492?ONDATE2=09.06.2020&action=compare>

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

IV RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 05-avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM
ISTIQBOLLARI. IV Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 232 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 05-avgust

ISBN 978-9910-09-259-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.